


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO‘NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 580-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohasini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

5. International Monetary Fund (2023). Fiscal Monitor: Debt and Fiscal Risks. Washington, DC.
6. World Bank (2024). Uzbekistan Public Expenditure Review. Washington, DC.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023–2025). Pul-kredit siyosati sharhlari va inflyatsiya bo‘yicha hisobotlar. Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023–2025). Davlat qarzi bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlar va byudjet ijrosi hisobotlari. Toshkent.
9. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (2018–2025). Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar statistik to‘plami. Toshkent.

GERMANIYA AHOLISINING TADBIRKORLIK ORQALI O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHNING MUVAFFAQIYATLI TAJRIBASI

Nizametdinov Ali Akramovich


Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: alwaysberich@gmail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarda aholini tadbirkorlik asosida o‘zini o‘zi band qilish tizimining rivojlanish xususiyatlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda samarali amaliyotlari tahlil qilingan. Xususan, o‘zini o‘zi band qilishning mehnat bozoridagi roli, norasmiy bandlikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada Xitoy tajribasi misolida o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlashning bosqichma-bosqich institutsional mexanizmi, uning infratuzilmaviy, moliyaviy va raqamli omillari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilish faoliyatining tadbirkorlikka transformatsiya jarayonlari, gig-iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish yo‘nalishlari hamda xalqaro tajribalar asosida umumiy qonuniyatlar aniqlangan. Tadqiqot natijasida o‘zini o‘zi band qilishni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlar — maqsadli guruhlarini aniqlash, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish kabi omillar asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida o‘zini o‘zi band qilishni mahalla darajasidan boshlab tadbirkorlik subyektlari darajasiga qadar rivojlantirishning ko‘p bosqichli modelini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkorlik, bandlik, mehnat bozori, self-employment, Vetnam tajribasi, Germaniya tajribasi, transformatsiya, kambag‘allikni qisqartirish, mahalla modeli, iqtisodiy rivojlanish, inkubatsiya markazlari, infratuzilma.

Jahon mehnat bozorida raqobat kuchayishi, an’anaviy ish o‘rinlarining qisqarishi va raqamlashtirilgan iqtisodiyotning taraqqiy etishi sharoitida aholini tadbirkorlik asosida o‘zini o‘zi band qilish, ya’ni self-employment tizimini rivojlantirish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu tizim mehnat bozorining norasmiy segmentini rasmiy iqtisodiy faollikka jalb qilish, ijtimoiy himoya tizimlariga bo‘lgan bosimni kamaytirish va kichik tadbirkorlik subyektlari bazasini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa iqtisodiy o‘sish sur‘atlari past bo‘lgan yoki makroregionlarda ishsizlik yuqori bo‘lgan holatlarda o‘zini o‘zi band qilish aholining real daromad manbai va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim mexanizm sifatida qaraladi.



1-rasm. Xorijiy davlatlarda mehnatga layoqatli aholi umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni

Rasm ma’lumotlariga ko‘ra mehnatga layoqatli aholining umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ulushi eng yuqorisi Gruziya davlatida, ya’ni 51,7 foizni, AQShda esa 6,4 foizni tashkil etadi. Demak, xorijiy davlatlarida mehnatga layoqatli aholisi umumiy sonida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi band qilish mexanizmining samaradorligi uning institutsionallashtirish darajasi, ya’ni davlat siyosatlaridagi uyg‘un tizimi (ta’lim, infratuzilma, moliya va bozor infratuzilmalari o‘rtasidagi bog‘liqlik) orqali ta’minlanadi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxsni tadbirkorlik subyektlariga aylantirish uchun, avvalo, kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, moliyaviy

resurslarga oson kirish, infratuzilmaviy muhit yaratish (inkubator, kovorking, raqamli platformalar) va mahsulotlarni bozorga chiqarishni osonlashtirish (marketing kanallari) talab etiladi. Shu kabi ko‘p bosqichli mexanizm o‘zini o‘zi band qilishni “ijtimoiy siyosat”dan “iqtisodiy drayver” darajasiga ko‘tarish imkonini beradi.

O‘zini o‘zi band qilishning eng muhim xususiyati – uning dinamik va tranzitiv tabiati bo‘lib, bu faoliyat odatda norasmiy sektorda boshlanib, muayyan institutsional va moliyaviy yordamlar ta’sirida rasmiy biznes subyektlariga aylanib boradi. Eng samarali tizimlar aynan shu transformatsiyaning yuqori ulushini ta’minlaydigan modellar hisoblanadi. Mazkur izlanish shu kabi xalqaro tizimlarni tahlil qilish asosida o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirishda muhim bo‘lgan tuzilmaviy elementlar va yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, olingan xulosalar kelgusida milliy miqyosda samarali o‘zini o‘zi band qilish siyosatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Germaniya. Germaniya mehnat bozori siyosatida o‘zini o‘zi band qilish ijtimoiy muhofaza tizimi (Arbeitslosengeld) va tadbirkorlik imkoniyatlari o‘rtasidagi “o‘tish instituti” sifatida tashkil etilgan. Mamlakat ish bilan bandlik agentligi (Agentur für Arbeit) orqali amalga oshiriladigan startap subsidiyalari (Gründungszuschuss) dasturi ishsiz fuqarolarga 6–15 oy mobaynida oylik va ijtimoiy sug‘urtalar orqali shaxsiy kichik biznesni boshlash imkonini beradi.

Savdo-sanoat palatalari (IHK) hamda hunarmandchilik palatasi (Handwerkskammer) tarmoqlari o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga malaka, sertifikat, litsenziya va mentorlik xizmatlari ko‘rsatadi. Tegishli talablar bajarilganidan so‘ng ular biznes litsenziyasiga ega bo‘lib, rasmiy soliq to‘lovchi tadbirkorga aylanadi. Germaniya mexanizmi o‘zini o‘zi band qilishdan biznes subyektlariga o‘tish jarayonini huquqiy-institutsional jihatdan tizimlashtirilganligi va ijtimoiy muhofaza tizimi bilan integratsiya qilinganligi bilan ajralib turadi. Bu model iqtisodiyotni raqobatbardosh holda saqlash va innovatsiyalarga yetarli sarmoya jalb qilish nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega.

Germaniyada o‘zini o‘zi band qilish ulushi past (10 %), chunki o‘zini o‘zi band qilish ko‘proq mehnat bozori siyosatining “iqtidorli o‘tish bosqichi” sifatida ishlaydi. Startap subsidiyalari dasturi orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar rasmiy tadbirkorlikka o‘tishini qo‘llab-quvvatlaydi. 2023 yilda o‘tish koeffitsiyenti 6 %, bu so‘nggi yillarda o‘shishni ko‘rsatadi. Daromadlar o‘shishi o‘rtacha 2–3 % atrofida bo‘lgan.

1-jadval

Germaniyada o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
O‘zini o‘zi band qilish ulushi (% umumiy ish bilan bandlar ichida)	9.8	10.0	10.2	10.1
Daromadlarda o‘sish (yillik %)	-3.7	3.2	2.6	2.9
O‘zini o‘zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o‘tganlar (%)	4	5	5	6

Germaniyada band bo‘lganlarning atigi 10 foizi o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlaydi. Bu ko‘rsatkich boshqa mamlakatlarga nisbatan past. Buning sababi, shuningdek, Germaniyada ko‘p odamlar ishga joylashishni xavfsizroq deb bilishadi.

Germaniyada o‘zini o‘zi band qilish tizimi mehnat bozorini modernizatsiya qilish va ijtimoiy muhofaza tizimlariga bosimni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan institutsional mexanizm sifatida tashkil etilgan.

Germaniya modelining muhim xususiyati – o‘zini o‘zi band qilishni ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg‘un holda boshqarilishi, uni mehnat bozori siyosatining organik qismiga aylantirishi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston uchun bu model o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ijtimoiy himoya tizimiga bog‘liq holda tadbirkorlik subyektiga o‘tkazish mexanizmini yaratish, startap subsidiyalariga o‘xshash dasturni joriy etishda yuksak salmoqli ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Vetnam. Vetnamda o‘zini o‘zi band qilish mexanizmi mamlakat qishloq hududlarini iqtisodiy modernizatsiya qilish siyosatida markaziy o‘rin egallaydi. “Bir jamiyat – bir mahsulot (One Commune – One Product)” dasturi iqtisodiy faollikni har bir hududdagi unikal resurslar va mahsulotlar (kokos, suvenirlar, meva-sabzavot qayta ishlash) orqali rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu dastur o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini mahalliy ishlab chiqarish markaziga yo‘naltiradi va keyinchalik sertifikatlash, brending va savdo tarmoqlariga chiqarish orqali mikro-tadbirkorlikka transformatsiya qiladi.

Moliyaviy jihatdan, “VBSP” mikro-moliya tizimi 50 mln donggacha imtiyozli kredit berish orqali o‘zini o‘zi band qilishni boshlash imkonini beradi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning 50–60 % ni ayollar tashkil etadi, bu esa o‘zini o‘zi band qilishni gender inklyuziya siyosatining muhim elementiga aylantiradi. Shu tarzda Vetnamda o‘zini o‘zi band qilish mehnat bozorini formallashtirish, mahalliy brendlar orqali eksport bozorlariga chiqish va ichki migratsiyani kamaytirish vositasiga aylangan.

2-jadval

Germaniyada o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
O‘zini o‘zi band qilish ulushi (% umumiy ish bilan bandlar ichida)	32	33	34	32.8
Daromadlarda o‘shish (yillik %)	-4.4	2.9	4.4	5.7
O‘zini o‘zi band qilishdan rasmiy tadbirkorlikka o‘tganlar (%)	4	5	6	7–9

Vetnamda o‘zini o‘zi band qilish iqtisodiy o‘shish va qishloq kambag‘alligini qisqartirishda asosiy drayver hisoblanadi. Davlat siyosati aholini kichik tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali qishloq hududlarda ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan. “Bir jamiyat – bir mahsulot” dasturi shu jihatdan aholining hududiga xos mahsulotlar yordamida mikrobiznesni rivojlantirishning innovator yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi.

Vetnamda o‘zini o‘zi band qilish ko‘pincha qishloq mahsulotlari va “Bir jamiyat – bir mahsulot” dasturlariga bog‘liq bo‘lib, umumiy ulushi 2021–2023 yillarda 32–34 % oralig‘ida. “VBSP” mikrokreditlari va “Bir jamiyat – bir mahsulot” sertifikat tizimi orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlikka o‘tish ko‘rsatkichi 7–9 % gacha ko‘tarilgan. Bu o‘zini o‘zi band qilishdan mikrokorxonalariga transformatsiya siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi.

Vetnamda o‘zini o‘zi band qilish tizimi iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biri bo‘lib, ayniqsa qishloq aholisi o‘rtasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish maqsadida institutsional muhit yaratilgan. Shu ma‘noda Vetnam tajribasi o‘zini o‘zi band qilishni hududiy ixtisoslashuv va savdo infratuzilmasi bilan uzviy bog‘liq holda tadbirkorlikka transformatsiya qilishning samarali modeli sifatida tavsiflanadi. O‘zbekiston sharoitida ham “Bir mahalla – bir mahsulot” shaklida o‘zini o‘zi band qilishni tadbirkorlikka o‘tkazish istiqbolli yo‘nalishdir.

Ushbu tajriba O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli bo‘lib, mahallalarda o‘zini o‘zi band qilishni tadbirkorlikka o‘tish yo‘li sifatida institutsionallashuv imkonini yaratadi. Bunda tuman darajasida o‘quv-inkubatsiya markazlari tashkil etish, maxsus soliq rejimlarini joriy qilish va raqamlashtirilgan xizmat bozorlarini kengaytirish ustuvor vazifa sanaladi.

Xalqaro amaliyot tahlillari aholini tadbirkorlik asosida o‘zini o‘zi band qilish tizimini rivojlantirishda institutsional yondashuvga asoslangan bo‘lib, ushbu mamlakatlar tajribasiga xos umumiy qonuniyat shundan iboratki, o‘zini o‘zi band qilish ishsizlikni qisqartirish vositasi bo‘libgina qolmay, kichik tadbirkorlikka olib boruvchi transformatsiyaviy trek sifatida ravnaq topgan. Shu tariqa, o‘zini o‘zi band

qilishni samarali tadbirkorlikka transformatsiya qilish uchun to‘rt asosiy shart dolzarb ahamiyat kasb etadi:

1. Aholining maqsadli guruhlarini to‘g‘ri tanlash va yo‘naltirish;
2. Ko‘nikma va bilimlarni shakllantiruvchi infratuzilmaviy ta’lim tizimini joriy etish;
3. Moliyaviy resurslarga oson kirish mexanizmlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash;
4. Bozor infratuzilmasi va huquqiy muhit orqali rasmiy tadbirkorlikka o‘tishni yengillashtirish.

Mazkur holatlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirishda “mahalla darajasidan boshlanuvchi – tadbirkorlik subyektlari darajasida tugashi mumkin bo‘lgan” ko‘p darajali modelni tatbiq qilish, shubhasiz, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning o‘z daromad manbaiga ega bo‘lish imkonini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivy (1997). “Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe: A Survey of SMEs in Slovakia.” *Journal of Small Business Management* 35(3): 93-98.
2. Inutu Lukonga. *Harnessing Digital Technologies to Promote SMEs and Inclusive Growth in the MENAP Region*. IMF Working Paper. © 2020 International Monetary Fund.
3. Welter F., Baker T., Audretsch D. *Entrepreneurship Policy and the Informal Economy*. – Berlin: Springer, 2017. – 235 p.
4. Fritsch. M. How does new business formation affect regional development? Introduction to the special issue. *Small Business Economics* 27 (2008): 245-260.
5. Хусаинов, М.К., Исоков, А.А. Исследование зарубежного опыта финансирования и поддержки малого и среднего предпринимательства/М.К. Хусаинов, А.А. Исоков // *Бизнес в законе*. - 2012. - № 2. - С. 271-273.
6. Хусаинов, М.К., Исоков, А.А. Исследование зарубежного опыта финансирования и поддержки малого и среднего предпринимательства/М.К. Хусаинов, А.А. Исоков // *Бизнес в законе*. - 2012. - № 2. - С. 271-273.
7. Чубарева Л.И. Эффективность поддержки малого бизнеса и критерии ее оценки // *Экономика промышленности*. – 2008. – Т. 41. – № 2. – С. 102–111.